



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– mart holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **1220 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi 0,4 % kamaygan.
- Tugatilgan korxonalariga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **751 taga oshgan.**


2018 yilning yanvar-mart oyida viloyatda 1171 ta korxonalar, tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 126 taga kamdir.

Shuningdek, faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 50,0 % ga ko'ypaygan hamda ularning soni 420 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 843 ta (4,0 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 21904 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Samarqand shahrida (33,2%), Urgut (9,2%), Pastdarg'om (7,5%) va Samarqand (6,7%) tumanlarida kuzatilmoqda.


Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



**Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 aprel holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Samarqand viloyati	23263	100,0	21904	100,0
Samarqand sh.	7435	32,0	7004	32,0
Kattaqo'rg'on sh.	788	3,4	767	3,5
tumanlar				
Oqdaryo	886	3,8	827	3,8
Bulung'ur	867	3,8	829	3,8
Jomboy	754	3,2	701	3,2
Ishtixon	1153	5,0	1076	5,0
Kattaqo'rg'on	1100	4,7	1030	4,7
Qo'shrabot	522	2,2	505	2,3
Narpay	869	3,7	846	3,9
Payariq	1240	5,3	1164	5,3
Pastdarg'om	1817	7,8	1651	7,5
Paxtachi	600	2,6	553	2,5
Samarqand	1589	6,8	1471	6,7
Nurobod	660	2,8	578	2,6
Urgut	2064	8,9	2016	9,2
Tayloq	919	4,0	886	4,0


Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 93,7 %ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 6,3 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,1% ga kamaygani ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,3 % savdoda, 17,5 % sanoatda, 8,5 % qurilishda, 7,1 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 5,9 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,3 % tashish va saqlash, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,8 % axborot va aloqa hamda 31,3 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




2018 yil yanvar-mart holatiga 1171 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 9,5 % ga kamdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Samarqand shahrida (362 ta), Samarqand (113 ta), Urgut (72 ta) va Payariq tumanlarida (70 ta) tashkil etilgan. Eng kam Paxtachi (22 ta), Narpay (23 ta) hamda Qo'shrabot (32 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



Agar, iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'radigan bo'lsak, eng ko'p savdo sohasida (267 ta), sanoatda (248 ta), qurilishda (148 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (146 ta) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari (105 ta) sohalarida tashkil etilgan. Axborot va aloqada (20 ta), tashish va saqlashda (29 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (41 ta) tashkil etilgan korxonalar soni kamligini kuzatilmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda

	2017 yil yanvar-mart holatiga.	2018 yil yanvar-mart holatiga.
Jami:	1297	1171
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	176	146
Sanoat	357	248
Qurilish	108	148
Savdo	287	267
Tashish va saqlash	51	29
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	153	105
Axborot va aloqa	37	20
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	23	41
Boshqa turlari	105	167

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi sanoatda (-1,0 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (-0,7 f.p.), qurulishda (-0,6 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (-0,3 f.p.dan), tashish va saqlashda (-0,3 f.p.), kamayganligi, buning natijasida savdoda (+0,6 f.p), boshqa faoliyat turlarida (+0,9 f.p dan) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (+1,4 f.p) faoliyat turlarida ulushining o'sishiga olib keldi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda


Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.04.2018 y.	01.04.2017 y.	farqi (+-)
Sanoat	16,5	17,5	-1,0
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	6,4	7,1	-0,7
Qurilish	7,9	8,5	-0,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,6	5,9	-0,3
Tashish va saqlash	3,0	3,3	-0,3
Axborot va aloqa	1,8	1,8	0,0
Savdo	23,0	22,4	0,6
Boshqa turlari	32,1	31,2	0,9
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3,7	2,3	1,4

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 aprel holatiga 16969 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 4633 ta, oilaviy korxonalar – 1755 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 10070 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 28 tani va boshqalar 483 tani tashkil etadi.




Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 305 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 49 taga yoki 19,1 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 236 tasi qo'shma korxonalar, 69 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Samarqand shahar 158 ta (51,8 %), Urgut 39 ta (12,8 %) va Jomboy tumanlarida 24 ta (7,9 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Qo'shrabot 1 ta (0,3 %), Payariq, Kattaqo'rg'on 2 ta (0,7 %) va Paxtachi tumanlariga 3 ta (1,0 %) to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 aprel holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 197 ta (64,6 %), savdoda 43 ta (14,1 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 17 ta (5,6 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 21 ta (6,9 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa axborot va aloqada 3 ta (1,0 %), tashish va saqlash, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda turlarida 4 tadan (1,3 %) hamda qurilish, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 8 tadan (2,6 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda tashish va saqlash faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-mart oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 27 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 16 taga ko'paygan yoki 2,4 baravarga oshgan.


Bunda, Turkiya Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida 7 ta, Rossiya Federatsiyasi 5 ta, Koreya Respublikasi 4 ta, Ukraina 3 ta va Xitoy Xalq Respublikasi bilan 1 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yilda Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-mart holtiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan savdoda 9 ta, sanoat va qurilishda 5 tadan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 3 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 2 ta, axborot va aloqada 1 ta va boshqa faoliyat turlarida 2 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 aprel holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 16843 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 aprel holatiga qaraganda 10,6 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 5807 tasi (34,5 %) Samarqand shahriga, 1610 tasi (9,5 %) Urgutda, 1228 tasi (7,3 %) Pstdarg'omda hamda 1210 tasi (7,2 foizi) Samarqand tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 16843 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 4854 tasi (26,8 %) – savdoda, 3800 tasi (22,6 %) - sanoatda, 1860 tasi (11,0 %) - qurilishda, 1514 tasi (9,0 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1284 tasi (7,6 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 708 tasi (4,2%) - tashish va saqlashda, 401 tasi (2,4 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 385 tasi (2,3 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 2037 tasi (12,1 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va sanoat faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-mart holatiga 1088 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 15,3 % ga kamdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Samarqand shahrida (339 ta), Samarqand (111 ta), Urgut (71 ta) va Payariq tumanlarida (65 ta) tashkil etilgan. Eng kam Narpay va Paxtachi (22 tadan) hamda Qushrobo'd (30 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (267 ta), sanoatda (247 ta), qurilishda (148 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (146 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (20 ta), tashish va saqlashda (29 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (41 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2018 yilning 1 aprel holatiga 1816 tani tashkil etib, ulardan 1755 tasi yoki 96,6 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 38,7 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 34,5 % yoki 606 tasi sanoat, 26,8 % yoki 471 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 16,2 % yoki 284 tasi savdo, 9,7 % yoki 170 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,9 % yoki 33 tasi axborot va aloqa, 1,2 % yoki 21 tasi qurilish, 0,9 % yoki 15 tasi tashish va saqlash, 0,3 % yoki 6 tasi sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish hamda 8,5 % yoki 149 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi, % da



Samarqand viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan

Nashr uchun mas'ul: **F.Fulfuqorov**
(0371) 230-85-42,43